

BEZOVTA QALB TUG'YONI

МЯТЕЖ БЕСПОКОЙНОЙ ДУШИ

THE REVOLT OF THE RESTLESS SOUL

S.M.Eshpulatova

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti
akademik litseyi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada shoirning mahorati, uning xalq dardi bilan yashab, xalq dardi bilan ijod qilgani, qalbini junbushga keltirgan hissiyotlar haqida to'liqlanib yozgan she'rlari haqida qisqacha ma'lumot berib o'tilgan. Bundan tashqari shoirning g'arb adabiyoti namoyondalarining asarlari tarjimai haqida ham ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: bezovta, qalb tug'yoni, hikmatlar, inson qalbi, haqiqat nurlari, iztirob.

Аннотация: В этой статье кратко рассказывается о творчестве поэта, о его жизни с болью народа, о чувствах, которые переполняли его душу. Кроме того, есть информация о переводе произведений поэта деятелями западной литературы.

Ключевые слова: тревожный, мятеж души, притчи, душа человека, лучи истины, страдание

Annotation: This article briefly tells about the poet's work, about his life and work with the pain of the people, about the feelings that overwhelmed his soul. In addition, there is information about the translation of the poet's works by figures of Western literature.

Keywords: anxious, heart knot, proverbs, human soul, rays of truth, suffering

El-yurt samimiy, pokiza tuyg'ularni, tabiat tarovatini yashamoq zavqini kuylovchi, siyosatdan xoli, oddiy, lekin ko'ngilga yaqin she'rlarga muhtoj bo'lgan bir vaqtda Erkin Vohidov o'zbek adabiyotining she'riyat deb atalmish maydoniga o'z so'zi va ovozi bilan, durdona asarlari bilan kirib keldi. Erkin Vohidov Behbudiy, Cho'lpon, Avloniy, Qodiriy singari ma'rifatparvarlarning 60-yillardagi ijodiy davomchisi sifatida maydonga chiqdi. Shoir she'riyatida davrning bezovta, izlovchan ruhi o'ziga xos, takrorlanmas obrazlarda aks etadi. Iztirobli o'ylar, o'tkir publitsistik ruh, keskin kinoyali ohang bilan to'liq yetuk asarlarida o'z davrining adolatsiz tuzumidan norozilik, ijtimoiy turg'unlik, egasizlik, qulchilik, mash'um yakka hukmronlik va makkorona ko'rinishdagi istibdod nayranglariga qarshi isyonkor va tug'yonli so'zini aytadi. Millatning uyg'onishi, o'zini tanishi, ma'rifatli olamda boshqa ilg'or xalqlar qatoridan o'z tarixiy o'rnini topishi uchun qayg'uradi. Ozodlik, ziyolilik va haqiqat Erkin Vohidov ijodining yetakchi g'oyalari.

El suygan shoir Erkin Vohidov oltmish yildan ortiqroq umrini ijodga bag'ishladi. Ustoz shoirning she'riyatga oshno bo'lishida G'ayratiy to'garagi, Mirtemir seminari, O'zbekiston Milliy universitetidagi ijodiy muhit katta ta'sir qilganligini ko'p marta e'tirof etganlar...

Erkin Vohidov shoir sifatida shakllangan elliginchi yillar o'rtalari, oltmishinchi yillar boshlari jamiyatda yangi ruh, yangicha qarashlar qaror topayotgan davr edi; adabiyot va san'atda ham yangilanish belgilari paydo bo'ldi, ijod zaminiy hislarga, haqiqatga, inson qalbi manzaralariga yaqinlasha boshladi. Biroq bu jarayon osonlikcha kechgani yo'q. Shoirning she'rlari elliginchi yillar boshida yozgan tabiat manzaralari haqidagi bolalarcha sodda mas'um satrlaridan tortib, 1992-yili chop etilgan mardona, shafqatsiz haqiqat yog'dulari bilan yo'g'rilgan, o'zini chuqur taftish etgan qalb tug'yonidan iborat she'rlariga qadar bosib o'tgan ijodiy yo'lga nazar tashlanganda, bunga yana bir bora iqrar bo'lasan kishi.

Shoirning butun ijod yo'li bahs-munozaralar ichida kechdi. Shoir o'z qo'liga qurol-she'r, uning tabiati, shoirning burchi, mas'uliyati xususida qo'p o'ylaydi, she'r va shoir haqidagi qarashlarini bayon etadi. U she'r va shoir xususida so'z ochganida, har doim ijod mashaqqatlarini, shoir uchun oson emasligini alohida ta'kidlaydi. "Shoirlik-bu shirin jondan kechmakdir", shoir inson va jamiyat, insoniyat yashaydigan zamindagi hamma voqealar uchun nihoyatda mas'ul shaxs; "Inqilob zilzilasiining markazida shoirlar qalbi", u "Haq yo'lda fidoyi askar", "Shoirning dardi-xalqning dardi". "Agar har bir so'zi xalqning, davrning nidosi bo'lsa, u shoir-baxtli", deydi u. Shoir xalqning, davrning nidosi bo'la oladigan asarlar yaratgunga qadar har xil ko'chalarga kirib chiqdi.

XX asr o'zbek zamonaviy she'riyatini Erkin Vohidov she'rlarisiz tasavvur etish qiyin. Uning she'rlarini o'qigan inson undagi yuksak badiiyatni, insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilganligini his qiladi, ular ko'ngillarimizni zavq-u shavq hamda iftixor tuyg'ulari bilan, ongimizni ezgulik fikrlari bilan boyitadi [<https://uforum.uz/archive/index.php/t-15655.html>].

Ozod Sharafiddinov ta'biri bilan aytganda, o'zbek adabiyotining ko'rki va faxri bo'lgan shoir Erkin Vohidov ijodini tahlil qilib, shoirning shunchaki ermak uchun she'r yozmasligini, hayotning dolzarb muammolarini qalamga olishini aytadi. Erkin Vohidov she'rlaridagi eng muhim jihatlarini ko'rsatib beradi : « Erkin Vohidov she'rlaridagi muhim jihatlardan biri-- ularga teran hikmatlarini joylaydi. Uning birinchi to'plamidagi ko'pgina she'rlaridayoq bu xususiyat bor edi:

« Kamtarlik haqida» she'rini eslang—unda choynak va piyola yordamida kibr-u havo va kamtarlik haqidagi g'oya bir umr esda qoladigan qilib ifodalangan...
Garchi shuncha mag'rur tursa ham,
Piyolaga egilar choynak.
Shunday ekan, manmanlik nechun,
Kibru havo nimaga kerak?

Kamtarin bo'l, hatto bir qadam
O'tma g'urur ostonasidan.

Piyolani inson shuning-chun
O'par doim peshonasidan.

[E.Vohidov. Muhabbat: She'rlar.—T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981.,—17-bet]

XX asrning o'rtalariga kelib o'zbek she'riyatida, "bahoriy iliqligi, nahoriy tiniqlik" namunalari ko'rindi: kamtarligi uchun peshonasidan o'pilgan piyolalar she'rxonlarga ko'ngil buloqlaridan mehr suvlarini uzatdi [O'zbek adabiy tanqidi [antologiya]/ tuzuvchi B.Karimov. tahrir hay'ati U.Normatov [va boshq.]-T.: "TURON-IQBOL"-2011,-311-bet].

Haqiqiy obrazlilik shoirga chinakam aforistik misralar tuzishga yordam beradi.

Olamni elkada ko'tarmak uchun
Dunyoga keladi bilsang erkaklar.

Yoki :

Qo'rquvning ko'zi katta, yuragi kichik bo'lur,
Qo'rquv zo'r kelgan yurtida arslonlar kuchuk bo'lur.

Erkin she'rlarining yana bir jihati—uning yumorga boyligida. Ildizlari xalq donoligiga, xalq tabobatiga borib taqaladigan yumor erkin she'rlariga teran bir optimizm (ko'tarinkilik- S.Eshpulatova)baxsh etadi, ulardagi insoniy jozibani kuchaytiradi, xalqchillikni yuqori bosqichga ko'taradi" [Ozod Sharafiddinov. Haqiqatga sadoqat. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent, 1989. 275-bet].

Shoir she'rlarining betakror xususiyatlaridan biri shuki, uning she'rlarida tiniqlik, ohanglarning ravonligi, musiqiylilikning mukammalligi sezilib turadi. Shoir nafaqat aruzda, balki barmoq vaznida ham yozgan she'rlari kishi qalbiga jo bo'ladi, bir tinglasangiz quloqqa o'rnanib qoladi, shoir she'rlarining bu jihati uning xalq ohangiga yaqinligidan dalolat beradi. Shoir she'r orqali pand-nasihat qilmaydi, haqiqiy lirikani his qiladi odam uning she'rlarini o'qiganda.

Erkin Vohidovning «Orzu chashmasi», «Nido» (1964), «Quyosh maskani» (1970), «Baxmal» (1974), «Ruhlar isyoni» (1978— 79), «Toshkent sadosi» (1983) kabi asarlari o'zbek dostonchiligining yetuk namunalariandir. «Ruhlar isyoni»da otashin bengal shoiri Nazrul Islom siymosi orqali vatan ozodligi va milliy istiqloq g'oyalari

tarannum etilgan. «Oʻzbekim» qasidasi (1968) kommunistik mustabid tuzum davrida milliy uygʻonishimizga barakali taʼsir koʻrsatdi. «Donishqishloq latifalari» turkum sheʼriy asarlari sotsial satiraning yorqin namunasi boʻlib, ularda xalqchil Matmusa siymosi orqali davr va hayotning maʼlum bir hodisalariga oʻtkir kulgili, hajviy munosabat bildirilgan. Oʻzbekiston milliy mustaqillikni qoʻlga kiritganidan soʻng mamlakatda boshlangan maʼnaviy-maʼrifiy yuksalish davrida Erkin Vohidov sheʼriyatining ahamiyati yanada ortib, yorugʻ kelajakka ishonch, milliy qadriyatlarga hurmat hamda vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydigan yuksak maʼnaviy omil boʻlib xizmat qilmoqda.

Erkin Vohidov 1968 yili «Oʻzbekim» qasidasini yozib, ona tilimiz xor boʻlgan, oʻz millati bilan faxrlanish millatchilik sanalgan, tariximiz faqat qorongʻilikdan iboratdek talqin qilingan, tarixiy asar yozganlarga oʻgay koʻz bilan qaraladigan pallada oʻz millatini, buyuk tariximizni ulugʻladi. Shoirning bu jasorati – xalqi boshiga tashvish tushganda, kurashga chiqadigan katta ijodkorlarga xos millatparvarlikning yorqin namunasi edi.

Bundan tashqari uning «Inson» qasidasi bir necha davlat sanʼatkorlari tomonidan qoʻshiq qilinib, dunyoning sakkiz tilida – ingliz, rus, tojik, turk, arab, qozoq, ispan va oʻzbek tillarida ijro etildi. Bu bilan shoir ijodining qanchalik ahamiyatli ekanini koʻrishimiz mumkin.

Erkin Vohidov dramaturg sifatida ham elga tanilgan («Oltin devor», 1969;

«Istanbul fojiasi», 1985; va b.). «Oltin devor» komediyasida turli komik holatlar tasvirlanadi, inson ruhiyatining turfa xil tovlanishlari yengil kulgi qilinadi, «Istanbul fojiasi»da asar qahramonlarining qismati davrning eng muhim voqealari — 2-jahon urushi, urushdan keyingi ijtimoiy-maʼnaviy hayotdagi oʻzgarishlar, muammolar bilan bogʻliqlikda yorqin va taʼsirli ifodalangan. Erkin Vohidovning «Shoir-u sheʼr-u shuur» (1987), «Iztirob» (1992) kitoblariga kirgan maqolalari, suhbatlari, mumtoz va hozirgi adabiyotimiz namoyandalari ijodini tahlil etuvchi tadqiqotlari oʻzbek publitsistikasi va adabiyotshunosligi rivojiga munosib hissa boʻlib qoʻshildi.

U oʻzbek adabiyotini tarjima asarlar bilan ham boyitdi. I. Gyotening «Faust» asarini, S. Yeseninining sheʼrlarini oʻzbek tiliga tarjima qilib, alohida kitob holida nashr ettirgan. Bundan tashqari, F. Shiller, Iqbol, Ulfat, R. Hamzatov, L. Ukrainka, A. Blok va boshqa turli xalqlar shoirlari asarlarini ham oʻzbek tiliga tarjima qilgan. Erkin Vohidov asarlari chet el (nemis, frantsuz, rus, ingliz, urdu, hind, arab va b.) hamda qardosh turkiy xalqlar tillarida («Oltin devor», «Saylanma», «Nido» va b.) nashr etilgan. Asarlari («Oltin devor», «Istanbul fojiasi») Hamza (hozirgi Oʻzbek Milliy akademik drama teatri) teatri, viloyat teatrlarida sahnalashtirilgan, «Oltin devor» komediyasi Pokistonning Laxor shahri teatrida qoʻyilgan. [<https://ziyouz.uz/ozbek-ziyolilari/erkin-vohidov-1936/>]

Adabiyotlar roʻyxati:

1. E.Vohidov. Muhabbat: Sheʼrlar.—T.: Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1981.
2. Oʻzbek adabiy tanqidi [antologiya]/ tuzuvchi B.Karimov. tahrir hayʼati U.Normatov [va boshq.]-T.: "TURON-IQBOL"-2011.
3. Ozod Sharafiddinov. Haqiqatga sadoqat. Gʻ.Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti. Toshkent, 1989.
4. <https://ziyouz.uz/ozbek-ziyolilari/erkin-vohidov-1936/>
5. <https://uforum.uz/archive/index.php/t-15655.html>